O. Hasanboyeva, M. Inoyatova,
A. Ne'matova

ODOBNOMA

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
2-sinfi uchun darslik

To'rtinchi nashr

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi tomonidan
tasdiqlangan

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"
Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent — 2018

UO‘T: 17(075)
KBT 74.200.51ya7
O 31

Taqrizchilar: **M. Quronov** — pedagogika fanlari doktori;
Z. Zamonov — O‘zDJTU doktoranti;
N. Ro‘ziboyeva — Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 62-maktab o‘qituvchisi;
Sh. Egamberdiyeva — Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi 95-maktab direktori.

Shartli belgilar:

— buni bilib oling;

— jumboqni yeching;

— lug‘atni daftaringizga ko‘chiring va ma’nosini yodda tuting;

— maqollarni yod oling;

?! — savol va topshiriqlar;

? — savollar;

! — topshiriqlar;

— dars tugadi.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-07-612-9

© **O. Hasanboyeva va boshq.,** 2011, 2018.
© **«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»** Davlat ilmiy nashriyoti, 2011, 2018.

I. BIZNING VATANIMIZ — O‘ZBEKISTON

ONA VATAN

Bizning vatanimiz O‘zbekiston deb nomlanadi. Uning bunday nomlanishi Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yilgan. Mamlakatimizning poytaxti Toshkent shahridir.

Vatan – Ona



Sen tug‘ilgan
Qutlug‘ xona.
Aziz diyor,
Pok ostona.

Qiyosi yo‘q,
Bu yagona.
Sen-u menga,
Vatan – Ona.

Shunday go‘zal
Ulug‘ yurtkim,
Tuprog‘ini
Ko‘zga surtgin.

Tursunboy Adashboyev

?!

1. Yuqoridagi rasmda nimalar tasvirlangan?
2. “Vatan – Ona” she’rini o‘qing va yod oling.

Inson tug‘ilib voyaga yetgan xonadon, mahalla, qishloq va shahar Vatan ichidagi kichik Vatandir.



O‘z kindik qoni to‘kilgan, ota-bobolari xoki yotgan ona yurtini dunyoda tengsiz, muqaddas Vatan deb biladigan odamning maqsad-muddaolari aniq, g‘urur va iftixori yuksak bo‘ladi.

“...ona yurtini dunyoda tengsiz, muqaddas Vatan deb biladigan odamning maqsad-muddaolari aniq, g‘urur va iftixori yuksak bo‘ladi”, degan jumlaning izohini kattalardan bilib oling.

Vatani borning davlati b□□.

AJDODLAR MEROSI — FAXR VA IFTIXORIMIZ

Bizning mamlakatimiz buyuk alloma, sarkarda, shoir va mutafakkirlar vatanidir.

Biz мatanimiz nomini dunyoga tanitgan Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarning avlodlarimiz.

Ulardan odob-axloqli bo‘lish va bilimning fazilatlari haqida qimmatli fikrlar meros bo‘lib qolgan.

?!

1. Yurtimizning qadimiy shaharlari nomlarini ayting.
2. Yuqoridagi rasmlarda kimlar tasvirlangan? Kattalar yordamida rasmda tasvirlangan ajdodlarimiz haqida bilib oling.

Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir.

Abu Rayhon Beruniy

Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur,
Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur

Alisher Navoiy

Har mamlakatda adolat eshigini ochdim,
Zulm-u sitam yo‘lini to‘sdim.

Kuch – adolatda.

Amir Temur

BUYUK AJDODLARIMIZNING IBRATLI ISHLARI

Husaynning tilagi

Buyuk ajdodlarimiz muntazam ravishda o‘z bilimlarini oshirib borganlar. Ko‘plab kitoblar mutolaa qilganlar. Masalan, buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino 10 yoshigacha matematika, mantiq, geometriyaga oid bilimlarni o‘rgangan. Uning asl ismi Husayn bo‘lib, Buxoroning Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan.

Hikoya qilishlaricha, Husayn 17 yoshga to‘lganida Buxoro amiri betob bo‘lib qoladi. Husayn uning kasalini davolagach, amir yosh tabibdan “Nima tilaysan?” deb so‘raydi. Yosh Husayn amirning kutubxonasida bebaho bilimlar xazinasi – noyob kitob va qo‘lyozmalar ko‘p ekanini yaxshi bilar edi. Shuning uchun u ikkilanib o‘tirmay kutubxonadan foydalanishga ruxsat so‘raydi.

Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino shogirdlariga yozib qoldirgan o‘gitlarida 18 yoshgacha olgan bilimi butun umriga yetganini aytib o‘tgan.

Odobli, bilimdon, aqlli, mehnatsevar, imon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.

?!

1. Yuqoridagi hikoya asosida kitobning inson hayotida tutgan o‘rni haqida fikr bildiring.
2. Eng yaxshi ko‘rgan kitobingiz qaysi?
3. Abu Ali ibn Sino shogirdlariga qanday o‘gitlarni yozib qoldirgan?

II. OILA – MUQADDAS DARGOH

OTA-ONA — AZIZ VA MO‘TABAR

?

1. Qaysi rasmda farzand odobiga to‘g‘ri kelmaydigan holatlar tasvirlangan?
2. Rasmlarda tasvirlangan oila a’zolariga g‘amxo‘rlik nimalarda ko‘rinadi?

Farzandlik burchlari
(o‘gitlar)

- Doimo ota-onaga hurmatda bo‘lish.
- Ota-onaning birinchi chaqiriqlari bilan oldilariga yetib borish.
- Ota va ona bilan gaplashganda yuzni burishtirmaslik, jahl qilmaslik.
- Ota va ona bilan suhbatlashganda ovozni baland ko‘tarmaslik.
- Ota-onaning ruxsatisiz sayohatga chiqmaslik.
- Ota-onaga quvonch keltirishga intilish.
- Ota-onani muqaddas deb bilish, chunki barcha go‘zalliklar ular tufaylidir.

Husayn Voiz Koshifiydan

Burch – bajarilishi zarur bo‘lgan vazifa.
Muqaddas – aziz, mo‘tabar.

O‘ylab ko‘ring siz qanday farzandsiz?

OILADA MENING O‘RNIM

Aka-uka, opa-singil qanday bo‘lishi kerak

Ey farzand!

Aka ukani, opa singilni to‘g‘ri yo‘lga boshlashi, himoya qilib, qo‘llashi kerak. Unga bilmaganlarini o‘rgatishi, shirin so‘z bilan to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatishi zarur. Uni yaxshi ko‘rishga harakat qilishi lozim. Uka va singil ham aka-opaga nisbatan hurmatda kamchilikka yo‘l qo‘ymasligi, ulardan hech narsasini qizg‘anmasligi, hasad qilmasligi kerak.

Matnga munosabat bildiring.
O‘zingizning qanday aka yoki qanday opa ekanligingiz haqida so‘zlab bering.

Akam – davlatim,
Ukam – savlatim.

Oilaviy an’analar

An’ana nima? An’ana – nasldan naslga o‘tuvchi qoida, udum, urf-odat va boshqa amallar. Mana shularning bir oilaga xosligi oilaviy an’ana bo‘ladi. Masalan, biror hunarning avloddan avlodga o‘tib davom etib borishi, o‘sha avlodgagina xos bo‘lgan ilm-fanga, san’atga ishtiyoq, biror buyumni nasldan naslga yetkazib bera bilishlik kabilardir.

?!

1. Rasmlarda qanday oilaviy an’analar tasvirlangan?
2. Oilangiz an’analari haqida so‘zlab bering.

QARISI BOR UYNING PARISI BOR

! Rasmlarni kuzating. Kattalarga ko‘rsatilayotgan hurmat va ehtirom haqida so‘zlab bering!

Katta o‘g‘il

(zamonaviy ertak)

Bir qishloqda chol bilan kampir yashar ekan. Ularning uch o‘g‘li shaharda turishar ekan. Kichik va o‘rtancha o‘g‘il ota-onasining oldiga tez-tez kelishar, katta o‘g‘il sira kelmas ekan.

Chol-kampir uni sog‘inishibdi. Osmondagi bulutlardan, yerdagi chuchmomalardan, hatto qushlardan ham katta o‘g‘liga salom yo‘llashibdi. Baribir katta o‘g‘il kelmabdi. Ona o‘g‘lini ko‘rish uchun shaharga otlanibdi.

Onani nabiralari kutib olishibdi, u keltirgan suzma va qurtlar nabiralariga yoqmabdi. Bizga oyimiz: «Birovning qo‘lidan hech narsa yemanglar, deb aytgan», – deyishibdi. Ona qattiq xafa bo‘libdi. Katta o‘g‘lining ishdan kelishini ham kutmay, qishlog‘iga qaytib ketibdi.

M. Ubaydullayeva

? Ona nima uchun o‘g‘li va nabiralaridan xafa bo‘ldi?

III. ODOB KISHINING ZEB-U ZIYNATI

JAMOAT JOYLARIDA O‘ZINI TUTISH ODOBI

Ko‘cha, maktab, transport, dam olish maskanlari, kino, teatr, muzey va istirohat bog‘i jamoat joylari hisoblanadi. Jamoat joylarida o‘zini tutishning quyidagi bir qancha odob qoidalari bor: ozoda kiyining; barchaga chiroyli muomalada bo‘ling; transportda kattalarga joy bering; kishilardan biror narsa so‘ramoqchi bo‘lsangiz, avval salom berib, uzr ayting, keyin so‘rang; katta yo‘lda xavfsizlik qoidalariga rioya qiling.

Chappavoy

Bizning Chappavoy nuqul
Ish qiladi chappaga.
Kitob-daftar o‘rniga,
Yong‘oq solar papkaga.

Tanaffusda boshqalar
Eshik tomon shoshadi.
Chappavoy eshik qolib,
Derazadan oshadi.

Xudoyberdi Komilov

?!

1. She'rdagi holatni ko'z oldingizga keltiring. Nimani his qildingiz? O'z munosabatingizni bildiring.
2. Chappavoyning qilgan ishlarini nima uchun yomon deb bilasiz?

?

1. Rasmlarda jamoat joylarida o‘zini tutish odobi buzilganligi nimalardan ko‘rinmoqda?
2. Jamoat joylarida o‘zini tutish odobi deganda nimani tushunasiz?

Intizom – qiladigan ishlarimizning har birini o‘z vaqtida tartibi bilan qilishdir.

Abdulla Avloniy

Ikki kishining orasiga ruxsatsiz o‘tirilmaydi.

Hadis

XUSHMUOMALALIK VA SAMIMIY MUNOSABAT

?

1. Rasmlarning qay birida xushmuomalalik, qaysi birida samimiy munosabatni ko‘ryapsiz?
2. Nima deb o‘ylaysiz, ona farzandiga nimalardan saboq beryapti ekan? Sizning onangiz nimalar haqida o‘git beradi?

HILOLA BILAN ZILOLA

Hilola bilan Zilola yon qo‘shni. Hilolaning fe’li birmuncha chatoqroq. Atrofdagilarga muomalasi qo‘rs, mensimay siltab gaplashadi.

Zilola esa uning aksi. Barchaga xushmuomala, samimiy munosabatda bo‘ladi. Shuning uchun uni hamma yaxshi ko‘radi.

Bir kuni Hilola ko‘chada chopib ketayotib yiqilib tushdi. Oyog‘i qayrilib, bosolmay qoldi. Buni ko‘rgan Zilola yordamga shoshildi.

– Voy, o‘rtoqjon, tura qol, menga suyan. Zilola Hilolaning turishiga ko‘maklashib, kiyimining changlarini qoqdi. Shirin gaplar bilan tasalli berib uyiga kirishiga yordamlashdi.

Zilolaning bu muomalasidan Hilola uyalib qoldi. U ham Ziloladek bo‘lishga ahd qildi.

?

1. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?
2. Nima deb o‘ylaysiz, insonning xushmuomala bo‘lishi nimalarga bog‘liq?

1. Quyidagi she’rni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.
2. Qiynalsangiz, ustozingizdan yordam so‘rang:

Shirin so‘z

Tig‘ yarasi bitar-u,
Til yarasi bitmaydi.
Tildan ozor cheksa kim,
Dil yarasi bitmaydi.

Yaxshi so‘z – jon ozig‘i,
Undan dil olar orom.
Bir-birovga shirin so‘z
Aytaylik, jon o‘rtoqjon.

Dilshod Rajab

Bug‘doy noning bo‘lmasa ham bug‘doy so‘zing bo‘lsin.

Xushmuomalalik haqida she’rlar topib yod oling.

SO‘ZLASHISH ODOBI

Suhbat odobi qoidalari

- Suhbatdoshingizga baland ovozda gapirmang.
- Uning gaplarini e’tibor bilan tinglang.
- Suhbat paytida o‘zingizni maqtamang.

Qo‘pol so‘zdan saqlan

(hikoya)

Bir qo‘pol bola bor edi. Otasi unga har gal qo‘pol gapirganida ayvon ustuniga bittadan mix qoqishni buyurdi. Birinchi kuni bola ustunga o‘nta mix qoqdi. Ikkinchi kuni mix qoqishdan bezillab, kamroq qo‘pollik qildi. Shu tariqa mixlar soni kamayib bordi. Nihoyat, bola ustunga mix qoqmay qo‘ydi. Shunda otasi: “Shirin gapirganingda bittadan mixni sug‘ur”, dedi. Bola otaning

aytganini qildi. U barcha mixlarni sug‘urib tashlagan kuni rosa quvondi. Lekin mixlarning o‘rni ko‘ziga xunuk ko‘rindi. Shunda ota:

— O‘g‘lim, qo‘pol gapdan odamlarning qalbida jarohatlar qoladi. Ko‘rdingmi, endi ustundagi teshiklarni yo‘qotib bo‘lmaydi, — dedi.

Siz qo‘pol so‘zlashdan qanday qilib qutulish mumkin, deb o‘ylaysiz?

Tig‘ jarohati bitar, til jarohati bitmas.

Donolar suhbat odobi haqida

Shirin so‘z zilol suvga o‘xshaydi.

Zilol suv qayerga oqib borsa, u yerdan anvoyi gullar o‘sib chiqadi.

Yusuf Xos Hojib

Zilol — toza, tiniq.
Anvoyi — har xil, turli-tuman.

- Yumshoqlik bilan so‘zlang.
- Ochiq chehra bilan gapiring.
- O‘ylab, andisha bilan so‘zlang, o‘ylamay aytilgan gap pushaymonlik keltiradi.
- Kishilar gapirayotganida oraga gap qo‘shmang, so‘zini bo‘lmang.
- Ko‘p gapirmang, zero bu oqillar ishi emas.

Husayn Voiz Koshifiydan

MULOQOT MADANIYATI VA TELEFONDA SO‘ZLASHISH ODOBI

Farzandlarim, insonlar doimo bir-birlari bilan muloqotda bo‘ladilar. Kishilarning dilini ranjitmasdan, ularning ko‘nglini ola bilgan insonlar muloqot madaniyati yuqori odamlar hisoblanadilar.

Jumladan, telefonda so‘zlashganda ham kishining madaniyati bilinadi.

Telefonda so‘zlashish qoidalari:

- go‘shakni ko‘tarib, “labbay” deng;
- suhbatdoshingiz bilan, albatta, salomlashing;
- suhbat chog‘ida “Labbay”, “Marhamat”, “Uzr” kabi so‘zlarni ishlating;
- bir joyga telefon qilsangiz, qisqa va aniq gapiring.

“Labbay”ga nima yetsin!

(hikoya)

Anvar aka hamkasbi Erkin akaning uyiga qo‘ng‘iroq qildi. Go‘shakdan yosh bola-

ning “Kim kerak?!” degan ovozi eshitildi. Kutilmagan savoldan Anvar aka shoshib qoldi.

— Assalomu alaykum, toy bola, dadangiz uydamilar? — so‘radi u.

— Kim bu? Kimsiz?! — salom berish o‘rniga yana savol yog‘dirdi bolakay.

Anvar aka sekingina go‘shakni joyiga qo‘ydi-yu, biroz yengil tortgandek bo‘ldi.

Mirvosil Odilov

Muomala — so‘zlashish.
Xijolat bo‘lish — uyalish.

1. Bolakayning o‘rnida siz qanday javob bergan bo‘lardingiz?
2. Telefonda so‘zlashish odobi haqida nimalarni bilib oldingiz?

TASHQI KO‘RINISH VA ORASTALIK

!

1. Rasmlarni izohlang.
2. Orasta va tartibli o‘rtog‘ingiz haqida so‘zlab bering.

Orastalik nima?

Avvalo, orasta so‘zining ma’nosini bilib olaylik.

Orasta bezatilgan, ziynatlangan ma’nosini ifodalaydi. Ya’ni, tartibga solingan, oro berilgan, yasatilgan, bezatilgan demakdir.

Mana shu xususiyatlarga ega inson orasta bo‘ladi. Hammayoqni sarishta qilish, ozoda kiyinish, soch, tirnoqlarga e’tibor berish, o‘quv qurollarini yaxshi saqlash kabi ishlar orastalik belgisidir.

A’zoyi badanimni
Xo‘p yaxshilab yuvaman.
Tirnog‘imni, tishimni
Doim toza tutaman.

Uyg‘un

Ro‘molcham

Olganimda do‘kondan,
Eding yangi, bejirim.
Shu ahvolga solib tez,
So‘rayapman kechirim.

G‘ijimlanib cho‘ntakda,
Ko‘p yurding-a, ezilib.
Qaramaysan yuzimga,
Xafaliging sezilib.

Mehrim senga borligi,
Hozirgina bilindi.
Tashlar chog‘i bir chetga
Ko‘zimga yosh ilindi.

Vali Ahmadjon

1. Sizning yoningizda doimo ro‘-molcha bo‘ladimi? Uni pokiza saqlaysizmi?
2. Sinfingizda kimlarning orasta yurishiga havas qilasiz?

Pokiza tanaga d□□□ yo‘lamas.

Pokiza — toza, ozoda.

YAXSHI FAZILAT — INSONGA ZIYNAT

Sabrlilik – go‘zal fazilat.

Sabrli bo‘lish bu xohlagan narsasi bo‘lmay qolsa chidash, nolimaslikdir.

Ustoz Rizouddin ibn Faxriddin “Sabr qilish, qiyinchiliklarga chidash foydali bir ishdir, bunday fazilatga ega bo‘lgan kishi har narsaga xafa bo‘lib, o‘z salomatligini yo‘qotmaydi”, deb uqtirgan.

Bolajonlarim, siz ham qiyinchiliklarga sabrli bo‘lishni hozirdan odat qiling.

Sabrli Ohu

(masal)

Sahroda turli hayvonlar suv topa olmay, tashnalikdan juda qiynalishdi. Ular quduq qazimoqchi bo‘lishdi. Eng avval Sher ish boshladi. Lekin darrov charchab qoldi. Ikkinchi bo‘lib Fil yer kovlashga tushdi. Ammo shunday katta Fil ham tezda

charchab qoldi. Navbat Jirafaga, Bo‘riga va Tulkiga keldi. Ko‘p o‘tmay, ular ham charchab qolishdi. Chunki sabr qilishni bilishmadi-da. Oxiri ishga hammadan kichkina Ohu kirishdi. U ingichka oyoqlari bilan qaziy-qaziy, oxiri suv chiqardi.

Sabrli Ohu suv ichmoqchi bo‘lganlarni xursand qildi.

?

1. Sahroda hayvonlar nima uchun quduq qazimoqchi bo‘ldilar?
2. Ohuning sabrli ekanligini qayerdan bildingiz?

Sabr achchiq, mevasi sh□□□□.

SAXIY VA KAMTAR BO‘LING

?!

1. Rasmda nima tasvirlangan?
2. Rasm asosida qizg‘anchiqlikning yomon odat ekanligi haqida so‘zlab bering.

Saxiylik va xasislik

Bir donishmanddan so‘radilar:

— Qaysi yomon odat boshqa yaxshi fazilatlarni yo‘q qiladi?

— Xasislik, — deb javob berdi u. Yana so‘radilar:

— Qaysi yaxshi fazilat boshqa yomon odatlarni yo‘q qiladi?

— Saxiylik, — dedi donishmand.

?

1. Saxiylik qanday fazilat?
2. Saxiy bo‘lish uchun nima qilish lozim?

Saxiylik — borini boshqalar bilan baham ko‘rish. Xasislik esa qizg‘anchiqlikdir. Xasis moddiy yordam so‘rab kelgan odamga bor narsani “menda yo‘q” deb aldab, bermaydi.

Farzandlarim, saxiylik fazilatlarning eng yaxshisi, xasislik odatlarning eng yomoni ekanini yodingizda tuting.

Moddiy yordam — pul yoki buyum bilan yordam ko‘rsatish.

Farzandlarim, kamtarlik biror ishni “Men qildim” deb maqtanmay, “Do‘stlarim bilan birga, yaqin kishilarimning yordamida bajardim” deyish, yordami uchun katta-kichikka rahmat aytishdir.

Kamtarlik — yaxshi xislat. Kamtar bo‘ling, maqtanchoq bo‘lmang.

Manmanlikdan yiroqda bo‘ling.

Manman o‘z onasiga ham yoqmaydi.

Kamtarga — kamol, manmanga — zavol.

Xosiyat buvisi o‘tirgan xonaga kirdi.

— Assalomu alaykum, buvijon, yaxshi uxlab turdingizmi? — deb buvisining yuzidan o‘pib qo‘ydi. So‘ng pastga o‘tirdi.

— Vaalaykum assalom, oppog‘im, nega pastga o‘tirib olding? Kel, yonimga, — dedi Mukarram buvi.

— Yo‘q, buvijon, yuqoriga, sizning oldingizga ota-onam o‘tiradilar, bolalar quyiga o‘tirishi kerak, — dedi Xosiyat.

— Voy, o‘zimning odobli qizimdan o‘rgilay, — yayrab ketdi buvisi.

— Buvijon, odob nima? — qiziqdi Xosiyat.

— Odob odamning kimligini bildiradi. Olamga oftob qanchalik zarur bo‘lsa, odamga odob shunchalik zarur. Sening kattalarga salom berishing, jilmayib, ochiq chehra bilan “buvijon”, “oyijon”, “opajon” deb gapirishingni ko‘rgan kishilar “Xosiyatxon odobli qiz ekan” deydi. Bordi-yu, o‘rtoqlaringni jerkib gapirsang, odamlarga labingni burib qarasang, kir-chir kiyimda yursang, hamma sendan qochadi, odobsiz qiz ekan, deydi.

Xosiyat quvonganidan buvisini quchoqlab oldi.

Muhabbat

Hikoyadan xulosa chiqaring: manmanlik va kamtarlikning farqi nimada ekan?

Dono o‘git durdan aziz.

O‘Z-O‘ZINGIZGA XIZMAT QILISHNI O‘RGANING

?!

1. Rasmlar haqida gapirib bering.
2. Qaysi ishlaringizni o‘zingiz mustaqil qila olasiz?
3. O‘z-o‘ziga xizmat qilish odobi deganda nimani tushunasiz?

Vaqti kelsa

O‘g‘il-qizlar, bolajonlar,
Har kimning o‘z xizmati bor.
O‘zingizdan kattalarga
Ish buyurib yurmang zinhor.

Kiyimlarni taxlab qo‘ying,
Toza tuting xonangizni.
Tashvishlarga qo‘yib yurmang,
Otangizni, onangizni.

Kitoblarni yaxshi saqlang,
Qoyil qolsin uni ko‘rgan.
Vaqti kelsa, tugmalarni
Qadashni ham o‘zing o‘rgan.

Tursunboy Adashboyev

Tayyorga | a | | | | | .

MEHMONDO‘STLIK — YAXSHI ODAT

Farzandlarim, mehmondo‘stlikni odat qiling. Mehmonni xursandchilik bilan kutib oling. Oldiga noz-ne’matlar qo‘yib, yeb-ichib o‘tirishga undang. Mehmon bo‘lib bir yerga borsangiz, haddan ziyod och yoki to‘q bormang. Taom yemay o‘tirsangiz, mezbon xafa bo‘ladi. Tinmay yeyaversangiz, boshqalarga yomon ko‘rinasiz.

? Mehmon kutish va mehmonga borish odobi haqida nimalarni bilasiz?

Mehmon aziz

(rivoyat)

Shahar boshlig‘ining oldiga asirlarni olib kelishdi. U asirlarni o‘limga hukm qilmoqchi bo‘ldi. Asirlar ichida bir bola bor edi. Bola shahar boshlig‘iga:

— Hazrat, tashnaman. Suv bering, — dedi. Shahar boshlig‘i unga suv berishni buyurdi. Bola:

— Ey hazrat! Bizni uzoq yo‘ldan haydab olib kelishdi. Barchamiz tashnamiz. Boshqalar ichmasa, men ham suv ichmayman. Marhamat qilib buyuring, barcha asirlarga suv berishsin, — dedi. Barcha asirlarga suv berildi. Shunda bola:

— Ey marhamatli shahar boshlig‘i, suvingizni ichish bilan hammamiz mehmoningiz bo‘ldik, fazilatli kishilar o‘z mehmonlarini o‘ldirmaydilar, — dedi.

Shahar boshlig‘i bolaning donoligiga tan berib, hamma asirlarni ozod qildi.

? Rivoyatda mehmonning azizligi qanday tasvirlangan?

JAMOAT TADBIRLARIDA ISHTIROK ETISH ODOBI

Oilaviy tadbirlar, marosimlarning barchasi mehmondorchilik bilan bog‘liqdir.

? Mehmonda o‘zini tutish odobini bilasizmi?

Taom vaqtida sanchqi, pichoq, sochiq va qoshiqni to‘g‘ri ishlating:

♦ pichoqdan o‘ng qo‘lingizda, sanchqidan chap qo‘lingizda foydalaning. Pichoq va sanchqini idishga sharaqlatib qo‘ymang;

♦ lagandagi taomni qoshiq bilan kavlamang;

♦ ishlatilgan qoshiq, sanchqi va pichoqni taqsimchaga qo‘ying;

♦ taom yegandan so‘ng qo‘lingizni yuvib, so‘ngra sochiqqa arting.

Dastyor qiz

Bugun Lolalarnikida beshik to‘yi marosimi bo‘ldi. Lola ham qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib, mehmonlarni kutib olishda qatnashdi. Ularning qo‘llariga suv quyib, toza sochiq tutdi. Taomlarni tashishda yordamlashdi. Axir bularning barchasini buvijonisi o‘rgatganlar-da! Lolaga mezbon va mehmonlarning o‘zaro muomalalari juda yoqdi. Mehmon kutuvchilar “Xush kelibsizlar!” deyishsa, mehmonlar “Xushvaqt bo‘ling!”, “Rahmat!” deb javob qaytardilar. Beshik to‘yi juda chiroyli o‘tdi.

O‘rganganlaringizdan qanday xulosa chiqardingiz?

Berilgan noz-ne’matlarning bosh harflarini topib, ularni qo‘shib o‘qisangiz, uy-ro‘zg‘or buyumi nomi hosil bo‘ladi.

D + + + + +

+ R + X + + .

KIYINISH MADANIYATI

? Orasta kiyinish deganda nimani tushunasiz?

Kiyimingiz ozoda va toza bo‘lsin. Kiyimingizni kiyim ilgichda saqlang. Poyabzalingizni juft qilib, o‘z joyiga qo‘yishni unutmang.

?!

1. Qachon qanday kiyinishni bilasizmi?
2. Ota-onangizga yordam berganingizda qanday kiyinasiz?
3. Maktab va uy kiyimining farqini aytib bering.

O‘z yoshiga, mavsumga va joyiga qarab kiyinish insonning didfarosatidan, qanday odam ekanligidan dalolat beradi. O‘g‘il-qizlarning milliy xususiyatlarni e’tiborga olib, o‘zlariga yarashgan, ozoda liboslar kiyib yurishlari ular madaniyatining belgisi hisoblanadi.

!

Qayerda qanday kiyinish kerakligini bilib oling va unga amal qiling. Maktabdan qaytgach, uy kiyimingizni kiying.

“MEHMON-MEHMON” O‘YINI
(amaliy mashg‘ulot)

Omonmisiz-esonmisiz

— Esonmisiz-omonmisiz,
Omonmisiz-esonmisiz?
Kulib turar yuzingiz,
Dilga yoqar so‘zingiz.
Hay-hay, ko‘zim tegmasin,
O‘rtoqjonim, bormisiz?

— Esonmisiz-omonmisiz,
Omonmisiz-esonmisiz?
Ko‘zlarimiz yo‘lingizda,
Sizsiz taom o‘tmas bizdan,

Xush kelibsiz, xush ko‘rdik biz,
O‘rtoqjonim, bormisiz?

?!

1. “Mehmon-mehmon” o‘yini qanday o‘ynaladi?
2. “Iltimos, oling”, “rahmat”, “kechirasiz”, “marhamat”, “labbay”, “xush kelibsiz” so‘zlarini ishlatib, “Mehmon-mehmon” o‘yinini o‘ynang.

1 M		N			R	I	N	
2 E	S		N			S	I	Z
3 H			D		L	A	K	
4 M	U	R			B	O		
5 O								
6 N								

Savollar:

1. Qishda mehmon kutganda dasturxonga qo‘yiladigan ho‘l mevalardan biri.

2. Mehmon bilan so‘rashganda ishlatiladigan so‘z.
3. Yozda va kuzda mehmon oldiga qo‘yiladigan xushbo‘y poliz mahsuloti.
4. Non botirib yeyiladigan shirinlik.
5. Dasturxonga tortiladigan o‘zbek taomi.
6. Dasturxonga qo‘yilishi shart bo‘lgan ne’mat.

IV. O‘Z-O‘ZINI NAZORAT QILISH

DO‘STLIKNI QADRLANG

Farzandlarim, doimo do‘stlashishni odat qiling. Kimning do‘sti ko‘p bo‘lsa, uning yaxshi fazilatlari ko‘payadi.

Yangi do‘st topsangiz, eskisidan kechmang. Do‘stingizga dushmanlik qilganni do‘st deb bilmang.

Aqlsiz va dangasa bilan do‘st bo‘lmang, chunki bu qusurlar yuqumli bo‘ladi. Agar do‘stlashsangiz, ularga yomon odatlarini yo‘qotishga yordam bering.

Do‘stingizdan hech narsani qizg‘anmang.

Qusur — kamchilik.

?!

1. Do‘stlaringizga qanday yumushlarni bajarishda yordam berasiz?
2. Do‘stlashish odobi haqida so‘zlab bering.

?!

1. Rasmda qaysi millat vakillari tasvirlangan?
2. Vatanimizda qanday millat va elatlar yashaydi?
3. Sizning qaysi millat vakillaridan do‘stlaringiz bor? Ular haqida so‘zlab bering.

Farzandlarim, barcha millat bolalari bilan do‘stlashishga intiling. Ular sizning aqlingizga quvvat, qalbingizga quvonch beradi. Til o‘rganasiz. Rus do‘stingizdan rus, ingliz do‘stingizdan ingliz tilini o‘rgansangiz, o‘z ona tilingizni do‘stlaringizga o‘rgatsangiz, bilingki, sizga jahonning eshiklari ochiladi.

...millatlararo totuvlik va do‘stlik, ularni saqlash va mustahkamlashga intilish doimo xalqimizning o‘ziga xos fazilati bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov

“Do‘stlik millat tanlamaydi” mavzusida kichik matn tuzing.

Do‘stlik — boylikdan

a				

.

DO‘ST TANLASH VA TANISHUV QOIDALARI

Do‘stingiz bilan tanishganingizda o‘zingizni yaxshi tuting. Avval do‘stona qo‘l olishib ko‘rishing, ismingizni, qaysi maktab va sinfda o‘qishingizni ayting.

Do‘stingizga ismini aytib murojaat qilishga odatlaning.

Do‘stingiz bilan uchrashganingizda ochiq chehra bilan so‘zlashing. Do‘stlik shirin so‘z va yordam ko‘rsatishdan boshlanishini unutmang.

Fil bilan Maymun

(ertak)

Qadim zamonda, olis o‘rmonda katta va kuchli Fil kichik va chaqqon Maymun bilan do‘stlashibdi. Fil har kuni o‘rmonni aylanib, Maymunning holidan xabar olar, Maymun esa Filni turli mevalar bilan siylar ekan. Bir

kuni Maymun yo‘qolib qolibdi. Fil uni izlab-izlab, oxiri daraxt shoxining bir uchidan topibdi. Fil do‘sti Maymundan:

— Nimaga bu yerda o‘tiribsan? — deb so‘rabdi.

— Qo‘rqayapman, — debdi Maymun ovozi qaltirab. — Yo‘lbars yeb qo‘yadi. Ana, daraxt orqasida poylab turibdi.

Fil kichik do‘stini xafa qilgan Yo‘lbarsning ta’zirini beribdi.

O‘tkir Hoshimov

?!

1. Nima uchun Filni Maymunning chin do‘sti deb hisoblaysiz?
2. Chin do‘stlik bilan yolg‘on do‘stlikning farqini so‘zlab bering.

TARTIBLI VA TADBIRLI BO‘LING

Tartibli bo‘lish — barcha narsa va buyumlarni o‘z o‘rnida ozoda saqlash, ulardan unumli foydalanish. Tadbirli bo‘lish esa — “Endi nima qilsam ekan?” — degan savol tug‘ilganda, yaxshilab o‘ylash, yo‘lini izlash va chora topish degani.

Bolajonlarim, tartibli va tadbirli bo‘ling.

? Jamoat joylarida o‘zingizni qanday tutishni bilasizmi?

Odobing — ko‘rking

Ko‘cha-ko‘yda, muzeylarda,
Istirohat bog‘larida,
Yurgan paytda odob saqla,
Hatto ta’til chog‘larida.

Tartibli bo‘l, tadbirli bo‘l,
Kutar turli ilmlar.

Tayyor daftar, rangli qalam,
Turli plastilinlar.

“Tejog‘li ish bejog‘lidir”,
Yodda tuting, buni sizlar.
Isrof qilmang nonni, tuzni,
Suvni tejang, o‘g‘il-qizlar.

Dilshod Rajab

! Tartiblilik va tadbirlilikning foydasi haqida so‘zlab bering.

Adib-betartib

(ertak)

Bor ekan-da, yo‘q ekan, och ekan-da, to‘q ekan. Adib ismli bola bo‘lgan ekan. U odobli bo‘lsayam, ishlari juda betartib ekan.

Adib o‘spirin yigitcha bo‘lganda dadasi unga duradgorlik kasbini o‘rgatibdi. Bir kuni bir bog‘bon uning otasidan rom, eshik tayyorlab berishni so‘rabdi. Dadasi, o‘zi betob bo‘lib qolgani uchun, vaqtincha o‘g‘lini yuboribdi.

Adib ishga kirishibdi. Bog‘bon esa o‘z yumushiga unnabdi. U tok qaychini endi qo‘liga olgan ekan, Adibning ovozini eshitibdi:

– Otaxon, iskanani ko‘rmadingizmi?

Bog‘bon payraxalar orasidan iskanani topib beribdi.

Keyin xomtok qilish uchun endi narvonga ko‘tarilganida yana Adibning ovozi eshitilibdi:

– Otaxon, buni qarang, arramni qayga qo‘yibman-a?!

Endi bog‘bonning qoshlari chimirilibdi. Ammo bu gal ham indamay, arrani qidirishga tushibdi. Oxiri taxtalarning ostidan chiqibdi.

Keyin Adib randani qidiribdi.

Bog‘bon tutaqib ketibdi-da, Adibning oldiga kelib debdi:

– Isming Adibmi, yo Betartibmi? O‘z asbobingni tayinli biror joyga qo‘ymay, na o‘zing ishlayapsan, na meni ishlatgani qo‘yayapsan. Qani, jo‘nab qolchi, otang tuzalganida o‘zi kelib ishlaydi!

Shunda Adibning xayoliga otasining: «Betartib bo‘lsang, keyin qiynalasan», – degan gaplari kelibdi. Adib bir xo‘rsinibdi-da, bog‘bonning uyidan boshini egib chiqib ketibdi.

To‘lqin Ilhomov

?

1. Ertakdan o‘zingizga qanday xulosa chiqardingiz?
2. Nima uchun tartibli va saranjom bo‘lish lozim? O‘z so‘zlaringiz bilan izohlab bera olasizmi?

Rejali ish — tejamli ish.

Betartib va beodob inson bargsiz daraxtga o‘xshaydi.

Muhammad Ismoil

Ko‘p so‘zlash va betartiblik aqlning kamligi nishonasidir.

“Hikmatnoma”dan

MULKINI SAQLAGAN XOR BO‘LMAS

Mol-dunyo, narsa-buyum mulk deyiladi. Uy-joy, avtomobil, ro‘z-g‘or buyumlari, umuman, pulga sotib olinadigan barcha narsalar mulk hisoblanadi. Mulk kishilarga yaxshilik qilish, ota-onani boqish, farzandlarni sog‘-lom katta qilish, ilm-hunar o‘rgatish, savob ishlar qilish uchun kerak.

Mol-mulkka faqat mehnat bilan erishiladi. Sizning buyumlaringiz ham ota-onangiz mehnatining natijasi. Shunday ekan, ularni avaylab, ehtiyotlab saqlang.

Molning qadrini saxiy bilur

(hikoya)

Bir vaqt Andijon shahrida qattiq zilzila bo‘lib, ko‘p kishilar tom va devorlarning ostida qolib, halok va mayib bo‘ldilar. Ko‘plar uy-joysiz, och qoldilar. Ular uchun har kimdan non, kiyim va pul yig‘ildi. Mehr-shafqat

jamiyati tuzilib, boylardan mablag‘ jamlandi. Jamiyat xodimlari yordam so‘rab toshkentlik bir boyning uyiga borishdi. Boyning nimadandir qattiq jahli chiqib turgan ekan. Xodimlar undan jahlining sababini so‘rashdi. Bildilarki, boyning xizmatkori uchi yoqilmagan bir dona gugurt cho‘pini yerga tashlagan, boy shundan darg‘azab bo‘lib, xizmatkorini qattiq urishgan ekan. Xodimlar “Bir dona gugurt cho‘pi uchun xizmatkorni shuncha urishgan odamdan pul so‘rash qanday bo‘lar ekan”, deb ikkilanib qolishdi. Lekin indamay qaytib keta olmay, maqsadlarini aytishga majbur bo‘lishdi. Boy ularning gaplarini eshitgach, darhol kissasidan bechora jabrdiydalar uchun besh yuz so‘m chiqarib berdi. Bu juda katta mablag‘ hisoblanar edi. Xodimlar hayron qolishdi. Boy ularga qarab: “Nimaga hayron bo‘lasiz? Agar men gugurt cho‘pini isrof qilaversam, bunday savob ishlarga qanday qilib pul yig‘ar edim?” – dedi.

Munavvarqori Abdurashidxonov

Yetti o‘lchab, bir k□□.

DAM OLISH, SOG‘LIQNI SAQLASH, BILIM OLISH HUQUQLARI

?

1. Rasmlarda nimalar tasvirlangan?
2. Sizning qanday huquqlaringiz bor?
3. Sizning huquqlaringiz kim tomonidan himoyalanadi?

Bosh qomusimiz — Konstitutsiyamizda bolalar bilim olish, dam olish va sog‘liqlarini saqlash huquqlariga ega ekanliklari ko‘rsatilgan.

Barini sev



Shu dala-qir, shu bo‘ston,
Shu kitobing, shu doston,
Shu oromgoh – tog‘ bag‘ri,
Soya-salqin bog‘ bag‘ri,
Senga boqqan har chechak,
Bugun, erta, kelajak,
Bari-bari seniki!
Qonun bilan seniki!
Bolam, shuni uqib ol,
Barini sev, sodiq qol.

Shuhrat

! She’rdagi satrlardan misol keltirib, o‘z huquqlaringizni aytib bering.

SOG‘LIG‘INGIZ — BOYLIGINGIZ

Vaqtning tez o‘tishini bilasizmi? Unutmang, salomatligingiz vaqtdan to‘g‘ri foydalanishingizga bog‘liq.

Sog‘lom bo‘lishingiz uchun kun tartibingizga quyidagilarni kiriting: albatta, uy vazifalarini bajargach, toza havoda 30 daqiqa aylaning. Kuniga 8 soatdan uxlang. 2 soatdan toza havoda dam oling. Kamida 1 soat jismoniy mehnat qiling. Ertalabki badantarbiyaga 15 daqiqa vaqt ajrating.

Fursat — g‘animat

Daftari ochiq-sochiq,
Qolgan vazifa chala.
Soat yurar chiq-chiq-chiq,
Yechilmagan masala.
Yana jaranglab soat,
To‘qqizga zang uradi.
Salimjon-chi, betoqat,
Endi shoshib turadi.

Salimjon juda nimjon,
Hech bir ishga “vaqti yo‘q”,
Badantarbiya qayda?
Yuvinishga “vaqti yo‘q”.
Darslari o‘lda-jo‘lda,
Qolgan ishga yog‘ar qor.
Kun tartibin foydasin
Bilmaslikdan qiling or!

Shukur Sa’dulla

Or qilish — o‘ziga ep ko‘rmaslik.

1. She’rni yod oling.
2. Kun tartibining salomatlikka foydasi haqida nimalarni bilasiz?

Vaqting ketdi — naqding ketdi.

QUVONCHLI KUNLARNI NISHONLANG

Eng quvonchli kunlaringiz Navro‘z, Hayit, Hosil bayramlari nishonlanadigan kunlar bo‘lsa kerak, to‘g‘rimi?

Bu bayramlar bir necha yuz yillardan beri xalqimiz tomonidan nishonlanib kelinmoqda.

Bu bayramlarda xalqimizga xos bag‘rikenglik, saxiylik, kamtarinlik, samimiylik, mehmondo‘stlik, bolajonlik odatlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Navro‘z nashidasi

Yana olam bo‘ldi yashil, serfusun,
Yana qizg‘aldoqlar ochildi gulgun.
Bu yilgi ko‘klaming o‘zgacha butun,
Vatanim, muborak bo‘lsin Navro‘zing.
Boshingda hurriyat quyoshing bordir,
O‘z Tug‘ro, Bayrog‘ing, Yurtboshing bordir.

Maqsading, g‘ayrating, bardoshing bordir,
Vatanim, muborak bo‘lsin Navro‘zing.

Erkin Vohidov

Tug‘ro — gerb.

Serfusun — juda go‘zal, chiroyli.

Vatanim

Chaman-chaman gullarga,
Sayroqi bulbullarga,
Ko‘kni quchgan uylarga,
Baxt keltirgan to‘ylarga,
Quvnoq va sho‘x kuylarga,
Joydir go‘zal vatanim,
Boydir go‘zal vatanim.

O‘tkir Rashid



Milliy bayramlarimiz va urf-odatlarimiz haqida nimalarni bilasiz?

OILAVIY TADBIRLAR VA QUTLUG‘ BAYRAMLAR

Tug‘ilgan kun, to‘y, mehmon kutish oilaviy tadbirlar hisoblanadi.

Birinchi sovg‘a

Halima bog‘ga kirdi,
Tong payti shosha-pisha.
Ilk bahor gulin terdi,
Nomi — jajji gunafsha.

Halima gulni terib,
Qayga olib ketmoqchi?
Chin dildan sovg‘a berib,
Kimni xursand etmoqchi?

Uyga kelganda bildik,
Quvnagan shod ko‘zidan,
Gulni sovg‘a qilibdi,
Oyisiga o‘zidan.

Ilyos Muslim

! “Onajonimning tug‘ilgan kuni” mavzusida matn tuzing.

9-may — Xotira va qadrlash kuni, insoniyat tinchlik dushmanlari ustidan g‘alaba qozongan qutlug‘ kun. Shu kuni tinchlik uchun kurashda halok bo‘lgan ota-bobolarimizning porloq xotirasini yodga oling. Xotira maydoniga borib, undagi lavhalar bilan tanishing.

O‘zingiz uchun qadrli insonlarni quvontirish rejasini tuzing. Nima qilsangiz ularni ko‘proq xursand qilasiz?

O‘tgan kuningni unutma.

Xotirasi yo‘qning kelajagi y□□.

?!

1. Siz Xotira va qadrlash kunini qanday nishonlaysiz?
2. “Xotirangiz qalbimizda mangu yashaydi” mavzusida matn tuzing.

ONA TABIATNI ARDOQLANG

! Jonivorlarga ozor berishning yomon odat ekanligi haqida do‘stlaringiz bilan suhbatlashing.

Tabiat hodisalari, dov-daraxt, o‘simlik, jonivor va qushlar — tabiat in’omlari. Bizning yashashimiz va go‘zallikdan quvonishimiz uchun tabiat tomonidan taqdim etilgan sovg‘alardir.

Marvarid-lola haqida ertak

Marvarid-lola kam uchraydigan noyob o‘simlik. U “Qizil kitob”ga kiritilgan. Ertagimiz ana shu go‘zal lola haqida.

Qadim zamonda farovon bir o‘lka bo‘lgan ekan. Saltanat xonining husnda tengsiz,

mehribon va oqila qizi bor ekan. Kunlardan bir kun u og‘ir betob bo‘lib qolibdi. Uning ahvolini ko‘rgan saroy tabibi xonga:

— Xonim, yurtimizda bir sehrli lola bor. Uni Yosuman kampir o‘z bog‘iga yashirib qo‘ygan. Agar qizingiz shu lolani hidlasa, shubhasiz, tuzalib ketadi, — debdi.

Xon yurtga: “Lolani olib kelganga qizimni beraman”, deb jar soldiribdi.

Baland tog‘larda qo‘y boqib yuradigan qo‘rqmas va dovyurak yigit — Botir podachi xonning qizini yaxshi ko‘rar ekan. U lolani olib kelish uchun Yosumanning bog‘iga jo‘nabdi. Yosuman kampir lolani qo‘riqlashni ilon va yantoqlarga topshirib, qirq kunlik uyquga ketgan ekan. Botir podachi bog‘ panjarasiga yaqin kelganida uning doimiy hamrohi — qo‘y haydab yuradigan tayog‘i tilga kirib:

— Ilonlarni men bilan ursang, ular senga yo‘l berishadi, — debdi.

Botir podachi ilonlarni tayog‘i bilan haydab, bog‘ga kiribdi. U tayog‘i bilan yantoq va chirmovuqlarni ura-ura, bog‘ning o‘rtasida atrofga nur taratib, ochilib turgan lolaga yetib olibdi. Lolani olib, avaylab qo‘yniga solibdi. Yana yantoq va chirmovuqlar bilan kurashib, panjaradagi ilonlarni urib haydab, nihoyat tashqariga chiqib olibdi.

Xon saroyiga kelib, tabibga lolani beribdi. Tabib qizning g‘unchadek lablariga lolani qo‘ygan ekan, malika ko‘zlarini ochibdi, yuzlari qizarib, ko‘zlari nurga to‘libdi. Tez kunlarda u butunlay sog‘ayib ketibdi. Xon qirq kecha, qirq kunduz to‘y-tomosha qilib, qizini botir podachiga beribdi. Lolani esa o‘z bog‘ida parvarish qila boshlabdi. O‘shandan beri xalq bu sehrli lolani yaxshi ko‘rib, oq bo‘lgani uchun uni “Marvarid-lola” deb atar ekan.

? Ertakdan noyob marvarid-lola haqida nimalarni bilib oldingiz?

V. ESTETIKA

BIZNING HAYOTIMIZDA TEATR

?

1. Rasmda qaysi bino ta’svirlangan?
2. Qo‘g‘irchoq teatri haqida nimalarni bilasiz?

Qo‘g‘irchoq teatrida

Shirinoy buvijonisi bilan qo‘g‘irchoq teatr-ga bordi.

Voy-bo‘, bolalarning ko‘pligini!.. – hayrat-landi Shirinoy.

U yerda «Egri va To‘g‘ri» tomoshasini ko‘rsatishdi. Tomoshani ko‘rgach, Shiri-

noyning hayrati yanada ortdi. To‘g‘ri-da, qo‘g‘irchoqlarning har bir harakat va holati qo‘l bilan boshqarilar ekan. Juda qiziqda! Qo‘g‘irchoqlar harakat qilib, gapirsa-ya!

Shirinoy teatrdan katta taassurot bilan qaytdi. O‘rtoqlariga tomoshadan nimalarni o‘rganganini so‘zlab berdi.

? Nima deb o‘ylaysiz, Shirinoy o‘rtoqlariga nimalarni so‘zlab berdi ekan?

Estetika biror narsaning go‘zalligini his qila bilishdir. Teatr ham go‘zallikni his qilishga o‘rgatadi.

Teatrga borish odobi qoidalari:

- teatrga orasta kiyinib boring;
- teatr binosiga turli xil yeguliklar olib kirmang;
- spektakl davomida gaplashib o‘tirmang.

Ming marta eshitgandan,
bir marta ko‘rgan yaxshi.

ERTAKLAR – YAXSHILIKKA YETAKLAR

Aziz bolajonlarim, siz ertaklarni juda yaxshi bilasiz. Chunki bolaligingizdan ertak eshitib katta bo‘lyapsiz. Bu ertaklarni dono xalqimiz yaratgan. Xalq ertaklari bir necha turlarga bo‘linadi: hayotiy ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli-afsonaviy ertaklar.

Ertaklarda xalq orzu-istaklari, ming yillik donoligi, tajribasi ifodalangan. Adolat va haqiqat ulug‘langan.

Farzandlarim, siz ertaklardan ko‘plab insoniy fazilatlarni o‘rganasiz. U sizni yaxshilikka yetaklaydi.

Atirgul

...Bir kuni bir bog‘da o‘t-o‘lanlar va dala gullari orasida atirgul ochildi. Atrofidagi barcha o‘simliklar uning go‘zalligi va hididan hayratga tushib, atirgulni olqishlay

boshlashdi. Atirgul bu maqtovlarni eshitib g‘ururlandi va hech kimni nazariga ilmay qo‘ydi.

Bir kuni atirgul tush ko‘ribdi. Tushida bir o‘zi cho‘lda o‘sayotgan emish. Atrofida na bir o‘t-o‘lan, na bir daraxt bor ekan. Quyosh ayovsiz qizdirarkan. Issiqdan rosa chanqabdi, lekin suv ko‘rinmas emish. Tez orada so‘lib, gul barglari qovjiray boshlabdi. Shu payt qattiq shamol turib, qum uyumlarini atirgulning ustiga tashlabdi. Qo‘rquvdan ovozining boricha baqirib yuboribdi va o‘z ovozidan uyg‘onib ketibdi. Ko‘zini ochib atrofida unga hayron bo‘lib qarab turgan o‘tlarga va daraxtlarga birinchi marta jilmayib qarabdi hamda ularni cho‘chitib yuborgani uchun uzr so‘rabdi.

?

1. Atirgul nimani tushunib yetdi?
2. Atirgul holatiga tushib qolmaslik uchun kishi nimalar qilishi kerak ekan?

Ertaklar hayolotning so‘ngsiz osmonidir.

INSON KAMOLOTIDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI

Qadim-qadimdan insonlar go'zallikka intilib yashaganlar. Uni anglaganlar va rasmlarda tasvirlaganlar. Ana shundan dunyoda tasviriy san'at paydo bo'lgan. Farzandlarim, agar sizda rasm chizishga ishtiyoq bo'lsa, uni, albatta, rivojlantiring.

Asfaltdagi rasmlar

Kim tanimas ko'chamizda
Dilshod, Sora, Nasimlarni.
Asfalt yo'lda uymalashib
Chizar turli rasmlarni.
Vaqtinchalik unutishgan
Kitob, ruchka, daftarlarni.
Aks etdirar shar ushlagan
Bolalarni, kaptarlarni.

Tursunboy Adashboyev

Siz ham ana shu bolalardek rasm chizishga qiziqasizmi?

TARBIYALILAR TANLOVI
(amaliy mashg‘ulot)

Sinfingizda “Tarbiyalilar tanlovi” o‘tkazing.

Quyidagi savollarga javob berib, tarbiyalilar tanlovi g‘oliblarini aniqlang:

1. Darslarda ustozning savollariga qo‘l ko‘tarib javob beradigan o‘quvchi kim?
2. Qaysi o‘rtog‘ingiz “rahmat”, “iltimos”, «marhamat”, “ho‘p bo‘ladi”, “xayrli kun” (“kuningiz hayrli bo‘lsin”), “sog‘ bo‘ling” kabi so‘zlarni ko‘p ishlatadi?
3. Doimo hammaga yordam berishga tayyor o‘rtog‘ingiz kim?
4. Siz ko‘proq qaysi o‘rtog‘ingizdan ibrat olishni istaysiz?
5. Sizga ismingizni aytib so‘ngra murojaat qiladigan o‘rtog‘ingiz kim?
6. Tanlov g‘oliblarini tabriklab, she’r, ertak yoki rivoyat aytib bering.

NAZORAT ISHI

1. “Vatani borning davlati ...” maqolidagi tushirib qoldirilgan so‘zni belgilang.
   a) ko‘p; b) yaxshi; d) bor.
2. Qaysi javobda oilaviy tadbir berilgan?
   a) tug‘ilgan kun;
   b) o‘rtog‘i bilan o‘ynash;
   d) maktabga borish.
3. Estetika nima?
   a) suhbatlashish;
   b) go‘zallikni his qilish;
   d) mehmonga borish.
4. Ertalabki badantarbiyaga necha daqiqa vaqt ajratishingiz kerak?
   a) 15 daqiqa;
   b) 10 daqiqa;
   d) 20 daqiqa.

?

1. Buyuk ajdodlarimizning qanday ibratli o‘gitlarini bilasiz?
2. Jamoat tadbirlarida nimalarga rioya qilish kerak?

MUNDARIJA

I. BIZNING VATANIMIZ — O‘ZBEKISTON

ONA VATAN 3
AJDODLAR MEROSI —
FAXR VA IFTIXORIMIZ 6
BUYUK AJDODLARIMIZNING
IBRATLI ISHLARI 8

II. OILA – MUQADDAS DARGOH

OTA-ONA — AZIZ VA MO‘TABAR 10
OILADA MENING O‘RNIM 12
QARISI BOR UYNING PARISI BOR 13

III. ODOB KISHINING ZEB-U ZIYNATI

JAMOAT JOYLARIDA O‘ZINI TUTISH ODOBI 17
XUSHMUOMALALIK VA SAMIMIY MUNOSABAT 20
SO‘ZLASHISH ODOBI 23
MULOQOT MADANIYATI VA TELEFONDA
SO‘ZLASHISH ODOBI 26
TASHQI KO‘RINISH VA ORASTALIK 28
YAXSHI FAZILAT — INSONGA ZIYNAT 31
SAXIY VA KAMTAR BO‘LING 33
O‘Z-O‘ZINGIZGA XIZMAT QILISHNI O‘RGANING 35
MEHMONDO‘STLIK — YAXSHI ODAT 39
JAMOAT TADBIRLARIDA ISHTIROK ETISH ODOBI 41
KIYINISH MADANIYATI 43
“MEHMON-MEHMON” O‘YINI 45

IV. O‘Z-O‘ZINI NAZORAT QILISH

DO‘STLIKNI QADRLANG 48
DO‘ST TANLASH VA TANISHUV QOIDALARI 51
TARTIBLI VA TADBIRLI BO‘LING 53
MULKINI SAQLAGAN XOR BO‘LMAS 57
DAM OLISH, SOG‘LIQNI SAQLASH, BILIM OLISH HUQUQLARI 59
SOG‘LIG‘INGIZ — BOYLIGINGIZ 63
QUVONCHLI KUNLARNI NISHONLANG 63
OILAVIY TADBIRLAR VA QUTLUG‘ BAYRAMLAR 65
ONA TABIATNI ARDOQLANG 67

V. ESTETIKA

BIZNING HAYOTIMIZDA TEATR 70
ERTAKLAR – YAXSHILIKKA YETAKLAR 72
INSON KAMOLOTIDA TASVIRIY SAN’ATNING O‘RNI 74
TARBIYALILAR TANLOVI 75
NAZORAT ISHI 76

Hasanboyeva, Oysha.
O 31 **Odobnoma:** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik / O. Hasanboyeva, M. Inoyatova, A. Ne’matova. — To‘rtinchi nashr. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. — 80 b.

ISBN 978-9943-07-612-9

UO‘T: 17(075)
KBT 74.200.51ya7

O‘quv nashri

Oysha Hasanboyeva
Muhayyo Inoyatova
Adolat Ne’matova

ODOBNOMA

2-sinf uchun darslik

To‘rtinchi nashr

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent—2018

Muharrir	Iroda Solihova
Badiiy muharrir	Asqar Yoqubjonov
Rassom	Baxtiyor Muhamedov
Dizayner	Umid Sapayev

Nashriyot litsenziyasi AI № 160, 14.08.2009-y.

02.04.2018-y.da bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70x90 1/16.
Kegli 16. Ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 5,85.
Nashr hisob tabog‘i 4,14. Adadi 490 375 nusxa.
94-sonli shartnoma. 18–182-sonli buyurtma.

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent — 100011, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent — 100011, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

T/r	O‘quvchining ismi, familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilmagan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.